

# Bolalar Muqaddas Kitobi

## Tasvirlab beradi



Ma'bad  
Rahbari  
Iso Oldiga  
Keldi



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan illustrasiya qilingan:  
Byron Unger; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:  
M. Maillot; Sarah S.

Alastair Paterson

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children  
[www.M1914.org](http://www.M1914.org)

©2020 Bible for Children, Inc.

Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.  
Lekin u sotilmaydi.




Bir kuni, Iso Ma'badga borganida, odamlar Xudoning Uyiga hurmatsiz munosabatda bo'lishayotganini ko'rди. Axir Ma'badda ba'zilar hayvonlarni sotishar, boshqalari esa u erda pul almashtirishar edi.




Tayoqlardan xivchin yasab, Iso u savdogarlarni Ma'baddan quvib chiqardi. "Bularni bu erdan olib keting," deb buyurdi Iso. "Otamning Uyini savdoxonaga aylantirmang." Iso Otasining Uyini yaxshi ko'rardi.




U erdagи  
rahbarlar  
Isodan Ma'badni  
tozalashga  
huquqi borligini  
isbotlash uchun  
mo'jiza  
ko'rsatishni  
talab qilishdi.



"Bu Ma'badni vayron qiling va Meni uni uch kun ichida qayta tiklayman," deb javob berdi Iso. Bo'lishi mumkin emas! Bu Ma'bad qirq to'rt yilda qurilgan.



Ammo Iso O'z tanasi haqida  
gapiroayotgan edi. Ma'bad  
kabi, Uning tanasi Xudo  
yashaydigan makon edi.  
Iso xochda o'lsada,  
Xudo Uni uchinchi  
kuni tiriltirishini  
bilardi.



Kech paytida,  
Ma'bad  
rahbarlaridan  
biri Isoning  
oldiga keldi.  
Iso ko'rsatgan  
mo'jizalar tufayli  
u kishi Isoni Xudo  
yuborganligiga  
ishonardi.  
Nikodimus Isoning  
oldiga Xudo haqida  
o'rganish uchun  
kelgandi.



An illustration depicting a conversation between Jesus and Nicodemus. In the foreground, the face of Jesus is shown from the chest up, wearing a purple robe with a yellow sash and a yellow turban. He has a dark beard and is looking slightly upwards and to his right. Behind him, a white cloud-like shape contains a smaller illustration of Nicodemus. Nicodemus is a man with dark skin, wearing a green robe and a red sash. He is holding a small red object in his hand and pointing towards it with his other hand. A speech bubble originates from this action.

Iso Nikodimusga  
insonlar Xudoning  
Shohligiga kirishi  
uchun qayta  
tug'ilishlari  
kerakligini aytdi.  
Nikodimus  
tushunolmadi.





Ulg'aygan  
odam yana qanday  
qilib chaqaloqqa  
aylanishi mumkin?  
Bundan tashqari,  
Nikodimus dindor  
edi. Dindorlikning  
o'zi yetarlik  
emasmi?





"Faqat ruhdan  
tug'ilgan ruhdir,"  
deb tushuntirdi  
Iso. "Xudoning  
Ruhi shamol  
kabidir. Insonlar  
shamolni ko'ra  
olishmaydi, va  
tushunishmaydi  
ham. Ular faqat  
shamolning  
ta'sirini  
ko'rishadi."






Iso Nikodimusga Isroil xalqi ancha oldin Muso payg'ambarga nolishganini eslatdi. "Bizda na ovqat, na suv bor, Xudo bizga bergen nonni yomon ko'ramiz" deb ular nolishgan edi.




Insonlarning gunohi Xudoni  
g'azablantirdi. Xudo ularning  
orasiga ilonlarni yubordi.  
ilonlar ularni chaqqanda,  
ko'plar vafot etdi.



"Biz gunoh qildik. Ilonlardan xalos qilgin deb Xudoga ibodat qilgin," yolvordi ular. Shunda Muso ular uchun ibodat qildi. Lekin Xudo ilonlarni olib tashlamadi.



Xudo Musoga ilon yasab uni xodaga mahkamlab qo'yishni buyurdi. "Ilon tishlagan odamlardan kimki xodadagi ilonga qarasa, omon qoladi," deb va'da berdi Xudo. Muso bronzadan ilon yasadi va o'sha ilonga qaraganlar shifo topishdi.





Iso Nikodimusga  
Inson O'g'li  
xuddi bronzadan  
yasalgan ilon kabi  
ko'tarilishi  
kerakligini  
aytdi.




U gunohkorlar  
uchun xochda  
o'lishini haqida  
gapirib  
berdi.



Iso shunday dedi,

"Xudo olamni shunchalar  
sevdiki, O'zining Yagona  
O'g'lini berdi, toki unga  
ishongan har bir  
kishi o'lmay, abadiy  
hayotga ega  
bo'lsin."



Buning ma'nosi shuki,  
Isoga ishongan  
har bir inson  
Xudoning  
oilasiga  
tug'iladi.

Balki Nikodimus o'sha kuni kechda Isoning  
shogirdiga aylangan. Ammo yillar o'tib,  
Nikodimus xochda mixlangan  
Xudoning O'g'lini ko'mishga  
yordam berishi orgali,  
Isoga ishonganini va  
Uni sevganini  
ko'rsatdi.



Shundan so'ng, Iso va Uning shogirdlari shimol  
tomon jo'nab ketishdi. Chunki shunda boshqalar  
ham Xudoning Shohligi haqidagi xabarni eshitib,  
Xudoning O'g'li bo'lgan Nosiralik Isoga  
ishonish imkoniga ega  
bo'lishardi.



Ma'bad Rahbari Iso Oldiga Keldi

Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Yuhanno 2-3 boblar,  
Sahroda 21-bob

"Kalomining ochilib qolganda ziyo ochar."  
Zabur 119:130





Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Xudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Xudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Xudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun xochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlarингiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga  
ishonsangiz, Xudoga shunday deb ayting:

Qadrli Iso, Men Sening Xudolingga ishonaman, Sen yer yuziga kelib  
mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir  
kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan  
yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim  
uchun va Sening farzanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Xudo bilan har kuni suhbatlashing!  
Yuhanno 3:16

